O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH	1182
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
Madraximova Shohista Bahrom qizi	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
Mavkulov Ravshan Nematjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
Yuldashev Fozil Turapovich	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
Худаярова Мехрангиз Мурадовна	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
Raxmatov Aziz Tolipovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDUDIIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмудходжаева Луиза Сайфуллоевна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyrov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G'., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinovna	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASSTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ.....	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНА	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH.....	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN.....	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
“YASHIL” IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	



“YASHIL” IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASH YO‘LLARI

Rustamov Narzillo Istamovich

Toshkent amaliy fanlar universiteti
Tarmoqlar iqtisodiyoti va buxgalteriyasi
kafedrası mudiri, i.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyot tamoyillari asosida barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash yo‘nalishlari, “yashil” o‘shish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi, MRV tizimi orqali atrof-muhitga chiqadigan chiqindilarni baholash masalalari yoritilib, ular bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: “yashil” iqtisodiyot, “yashil o‘shish”, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq ma‘lumotlar (MRV), issiqxona gazlari (IG), milliy miqyosda belgilangan hissalar (NDC), iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hukumatlararo panel (IPCC), emissiya koeffitsiyentlari, manfiy tashqi samaralar.

Abstract. This article discusses the directions of ensuring sustainable economic growth in our country based on the principles of a "green" economy, the experience of foreign countries on "green" growth, the issues of assessing emissions into the environment through the MRV system, and provides suggestions and recommendations on them.

Key words: "green" economy, "green growth", climate change-related data (MRV), greenhouse gases (GHG), nationally determined contributions (NDC), Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC), emission factors, negative externalities.

Аннотация. В данной статье рассматриваются направления обеспечения устойчивого экономического роста в нашей стране на основе принципов «зеленой» экономики, опыт зарубежных стран в области «зеленого» роста, вопросы оценки выбросов в окружающую среду с помощью системы мониторинга, отчетности и верификации (МРВ), а также предлагаются рекомендации по этим вопросам.

Ключевые слова: «зеленая» экономика, «зеленый» рост, данные, связанные с изменением климата (МРВ), парниковые газы (ПГ), определяемые на национальном уровне вклады (ОНП), Межправительственная группа экспертов по изменению климата (МППГК), коэффициенты выбросов, негативные внешние эффекты.

KIRISH

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Barqaror taraqqiyot dasturining asosiy maqsadlariga mos ravishda dunyoning boshqa mamlakatlari kabi 2019-yilda O‘zbekiston ham “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini qabul qildi. Strategiyaga ko‘ra yaqin o‘n yilda mamlakatda uglerod sarfini keskin kamaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ekologik toza va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi, samarali energiya manbalaridan keng foydalanish ko‘zda tutilgan.

Mamlakatimiz Prezidenti SH. Mirziyoyev Koreya Respublikasida o‘tkazilgan “Yashil o‘shish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030” (P4G) ikkinchi xalqaro sammitidagi nutqlarida alohida gapirib o‘tdilar. Unda davlatimiz rahbari: “Bugungi kunda ona tabiatning o‘zi bizga yo‘llayotgan ogohlik qo‘ng‘irog‘iga beparvo bo‘lmasligimiz kerak. Afsuski, iqlim o‘zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Biz yashayotgan Markaziy Osiyoda so‘nggi 30 yilda o‘rtacha yillik harorat taxminan bir darajaga ko‘tarildi. Mintaqamizdagi asosiy daryolarning havzasi va biologik xilma-xillikning qisqarib borayotgani jiddiy xavotir uyg‘otmoqda. Bug‘lanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarni chuqurlashtirmoqda. Bugungi kunda “yashil” taraqqiyot borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarni harakati yanada faol va samarali bo‘lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham yo‘q”, deb ta‘kidladilar [1].

O‘zbekiston uchun “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning ahamiyati hech qachon bunchalik muhim ahamiyatga ega bo‘lmagan, unga zarurat esa kattalashib bormoqda. Havo ifloslanishi va suv tanqisligidan tortib energetik blokoutgacha, Orol ekologik muammosidan tortib boshqa ekologik halokatlarga mamlakatimiz uchun afsuski



ahamiyatga muhtoj pallada turibdi. Eskirgan resurslarni ko'p talab qiluvchi amaliyotlarda davom etish, qazib olinadigan yoqilg'ilarga jiddiy qaramlik nafaqat tabiiy muhitga, balki O'zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Bu mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Yashil iqtisodiyot shu vaqtgacha iqtisodiyot nazariyasi tarkibi sifatida turli iqtisodchilar tomonidan katta qiziqish va e'tibor bilan o'rganib kelinmoqda hamda ta'riflanmoqda. Iqtisodchilarning ko'pchiligini fikriga ko'ra iqtisodiyotga hozirgi mavjud ekotizimning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Jumladan, Lin Margulis fikriga ko'ra mavzuga yaxlit yondashuv tipik bo'lib, iqtisodiy g'oyalar ma'lum bir nazariyotchiga bog'liq holda har qanday boshqa mavzular bilan aralashib ketadi. Feminizm, postmodernizm, ekologik harakat, tinchlik harakati, yashil siyosat, yashil anarxizm va globallashtirishga qarshi harakat tarafdorlari bu atamani asosiy iqtisodiyotdan tashqarida bo'lgan juda boshqacha g'oyalarni tasvirlash uchun ishlatishgan [2].

"Yashil" iqtisodiyot deganda, inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof- muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari bilan bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishi tushuniladi. Aholi turmush darajasini oshirish uchun moddiy ne'matlarni yaratishni barqaror ravishda ekologiya va atrof muhitga ziyon bermasdan ko'paytirib borish lozim. Shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan yuradiganga almashtirish, energiyani tejaydigan binolarni barpo qilish kabi yo'nalishlarda ishlarni olib borish lozim [3].

Iqtisodchi olim Karl Burkart "yashil" iqtisodiyotni oltita asosiy sektorga asoslangan deb ta'riflagan: qayta tiklanadigan energiya, yashil binolar, barqaror transport, suvni boshqarish, chiqindilarni boshqarish, yerni boshqarish [4].

Global biznesni ifodalovchi Xalqaro Savdo Palatasi (XSP) "yashil" iqtisodiyotni "iqtisodiy o'sish va ekologik mas'uliyat ijtimoiy rivojlanishdagi taraqqiyotni qo'llab-quvvatlagan holda o'zaro mustahkamlovchi rejimda birgalikda ishlaydigan iqtisodiyot" deb ta'riflaydi. 2012-yilda XSP har ikki yilda bir marta konsultatsiya qilinadigan xalqaro ekspertlarning hissalarini o'z ichiga olgan "Yashil" iqtisodiyot yo'l xaritasini nashr etdi. "Yo'l xaritasi" va "yashil" iqtisodiyot kontseptsiyasini aniqlashtirish va shakllantirish bo'yicha keng qamrovli va ko'p tarmoqli sa'y-harakatlarni ifodalaydi. U global muammolarga yechim topishda biznesning rolini ta'kidlaydi. U "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun biznes/tarmoq ichidagi va hamkorlikdagi harakatlarga taalluqli quyidagi 10 ta shartni belgilaydi: ochiq va raqobatbardosh bozorlar; ko'rsatkichlar, buxgalteriya hisobi va hisobot, moliya va investitsiyalar, ogohlik, hayotiy sikl yondashuvi, resurs samaradorligi va ajratish, bandlik, ta'lim va ko'nikmalar, boshqaruv va hamkorlik, integratsiyalashgan siyosat va qarorlar qabul qilish, moliya va investitsiya.

Iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta'siri qiymatini baholashning zarurligi bilan bog'liq yangi g'oyalar va yondashuvlarning shakllanishiga olib keladi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari avlodlar o'rtasida tenglikni ta'minlash kabi masalalarni dolzarbligini yanada oshirmoqda [5].

"Yashil" iqtisodiyot tushunchasining nisbatan to'liq ta'rifi BMTning Atrof muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan. Unda "yashil" iqtisodiyot - bu insonlar faravonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchilliklarni sezilarli darajada kamaytirishga olib keladigan iqtisodiyotdir, deb keltirilgan.

"Yashil" iqtisodiyotni o'rganayotgan maktablar orasida "Yashil" o'sish - atamasi ostida tadqiq qilayotganlar ham mavjud bo'lib, ular bu ekologik barqaror iqtisodiy o'sishning faraziy yo'lini tavsiflovchi atamadir deb ta'kidlaydilar. U iqtisodiy o'sish ustuvor maqsad bo'lib qolaverar ekan, iqtisodiy o'sishni resurslardan foydalanish va atrof- muhitga salbiy ta'sirlardan ajratish zarurligini tushunishga asoslanadi. Shunday qilib, "yashil" o'sish "yashil" iqtisodiyot va past uglerodli yoki barqaror rivojlanish tushunchalari bilan chambarchas bog'liq. Yashil rivojlanishning asosiy omili barqaror energiya tizimlariga o'tishdir. "Yashil" o'sish siyosati tarafdorlarining ta'kidlashicha, yaxshi amalga oshirilgan yashil siyosat qayta tiklanadigan energiya, yashil qishloq xo'jaligi yoki barqaror o'rmon xo'jaligi kabi sohalarda bandlik uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi bir qancha davlatlar va xalqaro tashkilotlar va boshqalar ham "yashil" o'sish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqqanlar; masalan, Global "Yashil" o'sish instituti (GYAO'I) bu masalaga alohida mahsus bag'ishlangan ishlarida "Yashil" o'sish atamasi milliy yoki xalqaro strategiyalarni tasvirlash uchun ishlatishgan, yoki COVID-19 inqirozidan iqtisodiy tiklanishning bir qismi sifatida, ko'pincha yashil tiklanish sifatida ifodalaydilar [6].

"Yashil" o'sish tanqidchilari yashil o'sish yondashuvlari iqlim inqirozi, biologik xilma-xillik inqirozi va boshqa atrof- muhit degradatsiyasini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan asosiy iqtisodiy tizimlar o'zgarishini to'liq hisobga olmasligini ta'kidlaydi. Tanqidchilar buning o'rniga iqtisodiy o'zgarishlar uchun muqobil asoslarga



ishora qiladilar, masalan, aylanma iqtisodiyot, o'sish, donut iqtisodiyoti yoki sayyora chegaralarini yaxshiroq hisoblaydigan va shunga o'xshash fundamental o'zgarishlarga olib keladigan iqtisodiyot deb qaraydilar.

Ishlab chiqarish va iqtisodiy taraqqiyotni o'lchash iqtisodiy indeks ko'rsatkichlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Yashil indekslar iqtisodiy taraqqiyotga erishishda insonning ekologik ta'sirini, transport, energetika, binolar va turizm kabi samaradorlik tarmoqlarini, shuningdek qayta tiklanadigan energiya va toza texnologiyalar innovatsiyasi kabi sohalarga yo'naltirilgan investitsion oqimlarni o'lchash zaruratidan kelib chiqqan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tashabbusi bilan Fransiya taraqqiyot agentligi bilan hamkorlikda O'zbekistonda Monitoring, hisobot berish va tekshirish (Measurement Reporting and Verification – MRV) tizimi joriy qilindi.

MRV – iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ma'lumotlarni yig'ish, boshqarish, tahlil qilish, ishlatish va tekshirish tizimidir, shuningdek, ushbu tizim iqlim o'zgarishi sohasida yumshatish, moslashish, moliyalashtirish, salohiyatni oshirish, texnologiyalar transfer qilishga ko'maklashadi.

2024-yilda Fransiya taraqqiyot agentligi hamda CITEPA hamkorligida Marokashning MRV tizimi onlayn platformasi O'zbekistonga transfer qilindi. Mazkur onlayn platformani joriy etish orqali respublika miqyosida barcha darajadagi issiqxona gazlari emissiyasini hisoblash, monitoring qilish hamda rasmiy hisobotini yuritish imkoniyatini yaratdi.

MRV jarayoni quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

IG milliy inventarizatsiyasi;

NDCni amalga oshirish va unga erishishdagi yutuq va natijalar;

Iqlim o'zgarishining ta'siri va moslashish (tegishlilik bo'yicha);

Moliyaviy, texnologiya transferi va salohiyatni oshirish bo'yicha qo'llab-quvvatlash;

NC va BTR birgalikda taqdim etilganda beriladigan qo'shimcha ma'lumot;

Yengilliklar va hisobot berishda erishilgan yaxshilanishlar haqida ma'lumot.

Emissiyalarni hisoblash – Milliy IG inventarizatsiyasi.

IPCC ko'rsatmalari, eng yaxshi amaliyot bo'yicha qo'llanma, emissiya koeffitsiyentlari ma'lumotlar bazasidan foydalanish.

Emissiyani baholashga darajalangan (Tiered) yondashuv:

Tier 1 (Xalqaro standart koeffitsiyentlar);

Tier 2 (Milliy standart koeffitsiyentlar);

Tier 3 (Mamlakatga xos usullar, murakkabroq modellar).

Usul tanlovi ma'lumotlar sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi; IG emissiyalarini hisoblashdagi noaniqlik yuqori darajali (Tier 2, Tier 3) usullardan foydalanilganda kamayadi.

Emissiyalar = Faoliyat ma'lumotlari × Emissiya koeffitsientlari

Faoliyat ma'lumotlari (AD – Activity Data) manbalari: so'rovlar, milliy statistika, proksi ma'lumotlari, pastdan yuqoriga uzatiluvchi ma'lumotlar.

Emissiya koeffitsiyentlari (EF – Emission Factors) manbalari: xalqaro standart koeffitsiyentlar, mamlakatga xos koeffitsiyentlar, milliy sharoitlari o'xshash bo'lgan boshqa mamlakatlar ma'lumotlaridan.

TAHLIL VA NATIJALAR

MRVni joriy etish natijasida global isishni 1,5°C gacha cheklash uchun issiqxona gazlari (IG) emissiyasi eng kamida 2025-yil oxirigacha eng yuqori nuqtasiga chiqishi va 2030-yilga kelib 43 foizga kamayishi kerak. Parij bitimini amalga oshirish eng ilg'or ilm-fanga asoslangan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarni talab qiladi. Bitim mamlakatlar tomonidan amalga oshirilayotgan iqlim harakatining besh yillik sikli bo'yicha ishlaydi.

Mamlakatlar iqlim bo'yicha milliy harakatlar rejalarini taqdim etishmoqda, ular Milliy miqyosda belgilangan hissalar (NDC) deb nomlanadi. Har bir NDC o'zidan oldingi versiyaga nisbatan ortib borayotgan ambitsiyalarni aks ettirish uchun mo'ljallangan. Mamlakatlar o'zlarining NDC larida Parij bitimi maqsadlariga erishish uchun IG emissiyalarini kamaytirish bo'yicha amalga oshiradigan harakatlarni ma'lum qiladilar, mamlakatlar, shuningdek, o'zlarining NDC larida iqlim o'zgarishi ta'siriga moslashish uchun chidamlilikni oshirish bo'yicha amalga oshiradigan harakatlarini bayon qiladilar.

Parij bitimi bilan Takomillashtirilgan shaffoflik tizimiga (ETF) asos solindi. ETF doirasida, 2024 yildan boshlab, mamlakatlar iqlim o'zgarishini yumshatish bo'yicha amalga oshirilgan harakatlar va natijalar, moslashish choralari va ko'rsatilgan yoki olingan yordam haqida shaffof hisobot beradi. Shuningdek, ETF taqdim etilgan hisobotlarni ko'rib chiqish bo'yicha xalqaro protseduralarni ham nazarda tutadi. ETF orqali



to'plangan ma'lumotlar uzoq muddatli iqlim maqsadlariga erishish yo'lidagi jamoaviy taraqqiyotni baholaydigan Global inventarizatsiyaga (Global Stocktake) kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy miqyosda belgilangan hissasini (NDC) 2021-yilda yangiladi. Yangilangan NDC bo'yicha O'zbekiston o'z majburiyatlarini oshirdi va 2030-yilga borib YalM birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari emissiyasini 2010-yil darajasiga nisbatan 10 foiz o'rniga 35 foizga kamaytirishni rejalashtirgan.

Birinchi IG inventarizatsiyasi 1990-1994-yillar uchun Birinchi Milliy axborotning birinchi bosqichi doirasida amalga oshirildi, ikkinchi bosqichda 1995-1999 yillardagi IG emissiyasini baholash amalga oshirildi.

Eng so'nggi Milliy axborot 2024-yilda taqdim qilingan bo'lib, 2021 yilgacha bo'lgan ma'lumotlarni qamrab oladi. Hisobotlar Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo panel (IPCC) qo'llanmalariga amal qilgan holda tayyorlanadi va topshiriladi.

1990-2021-yillar uchun umumiy IG emissiyasi 32,5% ga, jumladan 2010-2021 yillarda 20,6% ga oshdi. Emissiyaning eng katta o'sishi qishloq xo'jaligi hamda sanoat jarayonlari va mahsulotdan foydalanish tarmoqlarida kuzatildi. 2021 yilda IG umumiy emissiyada alohida gazlarning hissasi quyidagicha bo'lgan (million tonna CO₂-ekv): CO₂ – 139,4 (67,1%), CH₄ – 52,8 (25,4%), N₂O – 14,4 (7,0%), HFC – 0,99 (0,5%).

2021-yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jami IG emissiyalari LULUCF (o'rmonchilik va yerdan foydalanish) sektorida yutilishni hisobga olmaganda, CO₂ ekvivalentida 206,94 mln tonnani tashkil qilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

MRV tizimi orqali atrof-muhitga chiqadigan chiqindilarni baholashda manfiy tashqi samaralar yoki eksternalilar tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tashqi samaralar yoki eksternalilar - bozordagi oldi-sottidan olinadigan, lekin narxda o'z ifodasini topmagan xarajat yoki foyda. Ular muayyan operatsiyada qatnashadigan bozor sub'ektlari bilan bir qatorda uchinchi tomon bilan bog'liq bo'lgani uchun ham "tashqi" deb qabul qilinadi [8]. Ushbu xarajatlar yoki yutuqlar tovarlar va xizmatlarni ham ishalb chiqarishda, ham iste'mol qilishda vujudga keladi. Tashqi samara musbat (ijobiy) va manfiy (salbiy) samaralarga bo'linadi.

Manfiy tashqi samara xarajatlar bilan bog'liq bo'ladi. Agar bir iqtisodiy sub'ektning faoliyati boshqa iqtisodiy sub'ektlar faoliyatida xarajatlarga olib kelsa, manfiy tashqi samara vujudga keladi. Masalan, kimyo zavodi foydalanilgan suvni yetarli darajada tozalamasdan daryoga oqizmoqda. Chiqindi suv hajmi zavod ishlab chiqarish hajmiga proporsional bo'lsa, zavod qancha ko'p mahsulot ishlab chiqarsa, u atrof muhitni shuncha ko'p ifloslantiradi. Kimyo zavodi maxsus suv tozalash inshooti qurmaganligi uchun, chiqindi suv to'liq tozalanmaydi, demak zavodning xususiy chekli xarajati ijtimoiy chekli xarajatidan past bo'ladi, nima uchun deganda uning xarajati suvni tozalash bilan bog'liq xarajatdan holi. Zavod xarajatlarni tejash asosida ko'proq mahsulot ishlab chiqaradi. Ishlab chiqargan mahsulot hajmi samarali hajmdan ko'p bo'ladi.

Mamlakatimizda "yashil" iqtisodiyot tamoyillari asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun yana quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- O'zbekiston Respublikasi 2015-yildagi Iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij bitimi doirasida 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazi emissiyasi miqdorini 2010-yilga nisbatan 35 foizga qisqartirish bo'yicha izchil harakatlar olib borish kerak;

- xalqaro va respublika darajasida issiqxona gazi savdosini tartibga solish va amalga oshirishni muvofiqlashtirish va boshqarish uchun mas'ul bo'lgan ijro etuvchi milliy organ sifatida Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda uning huzuridagi "Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi" ishchi organ sifatida ishtirok etishi lozim;

- loyihalarni shaffoflik, ochiqlik va bozor tamoyillari asosida tanlab olish va amalga oshirishni ta'minlash lozim;

- issiqxona gazlari emissiyasini xalqaro savdoga chiqarishga qaratilgan investitsion loyihalar davlat-xususiy sheriklik tamoyillari hamda ochiq tanlov asosida amalga oshirilishi zarur;

- uglerod birliklari ixtiyoriy bozori loyihalari, qisqartirilgan issiqxona gazlari emissiyasi hajmi va ishlab chiqiladigan verifikatsiyalangan uglerod birliklari hisobini yuritish maqsadida Milliy uglerod birliklari reyestri hamda loyihalar bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish kerak va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev, Koreya Respublikasida o'tkazilgan "Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030" (P4G) ikkinchi xalqaro sammitidagi nutqidan.
2. Margulis, Lynn and Dorion Sagan, 2007, Dazzle Gradually: Reflections on the Nature of Nature, Sciencewriters Books, ISBN 978-1-933392-31-8
3. Towards a green economy in Europe. EU environmental policy targets and objectives 2010-2050. European Environment Agency, Copenhagen, 2013. URL: <http://www.eea.europa.eu/publications/towards-a-green-economy-in-europe>.
4. Karl Burkart. In: [Neuer Nekrolog der Deutschen](#). 29. Jahrgang, 1851, 1. Teil, Weimar 2003. p. 428–430.



5. Муминова Э.А. Яшил иқтисодиёт барқарор ривожланиш механизми сифатида. Иқтисод ва молия илмий журнали 2023 йил 1 -сон. 16-22 бетлар.
6. М.И. Юлдашев, А.Н. Хамдамов, Ф.А. Юлдашев, Ш.И. Қурбонов. “Яшил иқтисодиёт”. Илмий монография – Т.: “Fan ziyosi” нашриёти, 2024 й. 232-бет.
7. Навстречу “зеленой” экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др: ЮНЕП/Грид Арендаль, 2011. С. 17.
8. Salimov B.T., Yusupov M.S., Salimov B.B. Mikroiqtisodiyot. Darslik (To’ldirilgan va qayta ishlangan nashri). – Т.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021 – 448 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
